

## RAQAMLI JAMIYAT KONTEKSTIDA JAMOATCHILIK NAZORATINING FALSAFIY TAHLILI

**Mamatov Obidxon Vaqqosovich**

University of Business of Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi dotsenti, falsafa  
fanlari nomzodi

E-mail: [mamatovofficial@gmail.com](mailto:mamatovofficial@gmail.com)

Tel: +99894 505 50 60

**DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20563012>**

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada raqamli jamiyat sharoitida jamoatchilik nazoratining mazmun-mohiyati, uning shakllanish omillari va rivojlanish tendensiyalari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi natijasida fuqarolarning davlat va jamiyat hayotidagi ishtiroki yangi bosqichga ko'tarilgani yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** raqamli jamiyat, jamoatchilik nazorati, ijtimoiy falsafa, raqamli transformatsiya, fuqarolik jamiyati, shaffoflik, hisobdorlik, ijtimoiy tarmoqlar, axborot xavfsizligi, demokratik boshqaruv*

***Аннотация:** В данной статье с социально-философской точки зрения анализируются сущность и содержание общественного контроля в условиях цифрового общества, а также факторы его формирования и тенденции развития. Освещается, что в результате широкого распространения цифровых технологий, интернета и социальных сетей участие граждан в жизни государства и общества вышло на качественно новый уровень.*

***Ключевые слова:** цифровое общество, общественный контроль, социальная философия, цифровая трансформация, гражданское общество, прозрачность, подотчётность, социальные сети, информационная безопасность, демократическое управление*

***Abstract:** This article analyzes the essence and content of public oversight in the context of a digital society, as well as the factors influencing its formation and development trends from a socio-philosophical perspective. It highlights that the widespread adoption of digital technologies, the Internet, and social media has elevated citizens' participation in public and state affairs to a new level.*

***Keywords:** digital society, public oversight, social philosophy, digital transformation, civil society, transparency, accountability, social media, information security, democratic governance*

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, davlat boshqaruvi tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari ochiqlik, shaffoflik va samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa jamoatchilik nazoratining yangi shakl va mexanizmlarini vujudga keltirib, fuqarolarning davlat va jamiyat ishlaridagi ishtirokini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, raqamli muhitda axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, soxta axborot tarqalishi kabi qator muammo va xavflar ham yuzaga kelmoqda. Demak, raqamli transformatsiya sharoitida jamoatchilik nazoratining imkoniyatlari bilan bir qatorda uning xavf va cheklovlarini tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Raqamli transformatsiya sharoitida jamoatchilik nazoratining mazmuni an'anaviy kuzatuv, murojaat va muhokama shakllaridan ancha kengayib, ma'lumotlar, platformalar, algoritmlar, sun'iy intellekt, elektron xizmatlar va onlayn muloqot maydonlarini qamrab oladigan murakkab ijtimoiy-huquqiy jarayonga aylanmoqda. "internet texnologiyalari siyosiy institut va jarayonlar transformatsiyasi va modernizatsiyasiga asos bo'ladi, davlat xizmatlarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi" [1]. Avvallari fuqaro davlat organi faoliyati haqida ma'lumot olish uchun idoraga borishi, yozma murojaat qoldirishi yoki mahalliy yig'ilishda ishtirok etishi kerak bo'lgan bo'lsa, hozir elektron murojaat, ochiq ma'lumotlar portali, ijtimoiy tarmoq, onlayn so'rovnoma, raqamli xarita, davlat xaridlari platformasi va elektron byudjet tizimlari orqali nazorat imkoniyati

kengaydi. Bu holat jamoatchilik nazoratini tezkor, ommaviy va dalillarga asoslangan jarayonga aylantiradi. Shu bilan birga, raqamli muhit yangi xavflarni ham keltirib chiqaradi: shaxsiy ma'lumotlar sizishi, algoritmik adolatsizlik, soxta axborot, kiberhujumlar, raqamli tengsizlik, onlayn ta'qib, platformalar monopoliyasi va davlat nazoratining haddan tashqari kuchayishi kabi muammolar jamoatchilik nazoratining sifatini jiddiy sinovdan o'tkazadi.

Raqamli transformatsiya jamoatchilik nazorati uchun eng avvalo axborotga yetishish imkoniyatini kuchaytiradi. Davlat organlari faoliyati, byudjet xarajatlari, davlat xaridlari, ijtimoiy dasturlar, qurilish loyihalari, litsenziyalar, statistik ko'rsatkichlar va xizmat ko'rsatish natijalari haqidagi ma'lumotlar ochiq e'lon qilinsa, fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari ularni mustaqil tahlil qilishi mumkin bo'ladi. Bu jarayonda jamoatchilik nazorati taxmin va umumiy norozilikdan dalillar, raqamlar va taqqoslashlarga asoslangan faoliyatga o'tadi. Masalan, bir hududdagi maktab ta'miri uchun ajratilgan mablag', shartnoma qiymati va ishning haqiqiy natijasi solishtirilsa, mablag' sarfi qanchalik maqsadli bo'lgani ko'rinadi. Ochiq ma'lumotlar nazoratni faqat davlat tekshiruv organlari emas, balki mustaqil jurnalistlar, NNTlar, tadqiqotchilar, blogerlar va fuqarolar ham amalga oshira oladigan umumiy maydonga aylantiradi.

Raqamli muhitda jamoatchilik ekspertizasi yangi va qulay shakllarda namoyon bo'lmoqda. Xususan, qonun va qarorlar loyihalarining internet orqali e'lon qilinishi, mutaxassislar tomonidan ularga izoh va takliflar berilishi, fuqarolarning har bir modda yuzasidan o'z fikrini bildirishi, tahlilchilarning esa hujjatning jamiyat hayotiga ta'sirini ma'lumotlar asosida baholashi jamoatchilik nazorati samaradorligini oshiradi. Bu jarayon qonunchilik sifatini yaxshilashga xizmat qiladi, chunki mavjud muammolar hujjat qabul qilingandan keyin emas, balki uni qabul qilishdan oldin aniqlanadi. Masalan, elektron mehnat munosabatlari, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, shaharsozlik, ekologik ruxsatnomalar yoki aholi turmushiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa qarorlar loyihalari keng jamoatchilik

muhokamasiga qo'yilsa, turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarini hisobga olish imkoniyati ortadi.

“Bugungi kunda, raqamli dunyo bizning vaqtimizni qanday sarflashimizdan, pulni qanday boshqarishimizdan tortib hayotimizning har bir sohasiga kiritilgan. “Dijitalizatsiya”, ya’ni ma’lumotlarni kompyuter tiliga o‘g‘irish amaliyotining roli inson hayotida tobora dolzarblashib bormoqda” [2]. Raqamli jamoatchilik nazoratida axborotning haddan tashqari ko‘pligi ham yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Fuqarolar, jurnalistlar va nodavlat notijorat tashkilotlari katta hajmdagi hujjatlar, ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar, jadvallar, videolar va statistik ma’lumotlar orasidan eng muhim masalani ajratib olishda qiynalishi mumkin. Bunday vaziyatda tahlil qilish imkoniyati yuqori bo‘lgan yirik tashkilotlar ma’lumotlardan samarali foydalana oladi, ammo oddiy fuqaro axborot oqimida adashib qolishi ehtimoli kuchayadi. Shu bois raqamli jamoatchilik nazoratida ma’lumotlarni ko‘rgazmali shaklda taqdim etish, sodda va ravon tushuntirish, infografika, interaktiv xaritalar, qisqa tahliliy sharhlar hamda fuqaroga tushunarli tildan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Zero, ochiqlikning asosiy maqsadi fuqaroni ko‘p ma’lumot bilan charchatish emas, balki unga voqea-hodisalarni to‘g‘ri tushunish, baholash va munosabat bildirish imkonini berishdir. Shu ma’noda, raqamli ochiqlik inson manfaatiga xizmat qilishi, fuqaro esa ma’lumotlar to‘plami ichida yo‘qolib qolmasligi lozim.

Raqamli jamoatchilik nazoratining huquqiy asoslari aniq belgilanmasa, uning imkoniyatlari jamiyat uchun muayyan xavf-xatarlarga aylanishi mumkin. Shuning uchun qaysi ma’lumotlar jamoatchilik uchun ochiq bo‘lishi, qaysi axborotlar shaxsiy hayot daxlsizligi yoki davlat sirini himoya qilish maqsadida maxfiy saqlanishi, raqamli tizimlarda qo‘llaniladigan algoritmlar qanday ishlashi haqida fuqarolarga tushunarli izoh berilishi, elektron platformalar qanday mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi, fuqarolarning elektron murojaatlari qaysi muddatlarda ko‘rib chiqilishi hamda shaxsiy ma’lumotlar tarqalgan yoki sizib chiqqan holatlarda kim javobgar bo‘lishi qonunchilikda aniq ko‘rsatilishi zarur [4]. Raqamli muhit tez sur’atlarda

o'zgarib borayotgani sababli huquqiy me'yorlar ham zamon talablariga mos ravishda muntazam takomillashtirilib borilishi lozim. Biroq bunday tartibga solish jarayoni so'z erkinligi, fuqarolik faolligi va jamoatchilik tashabbuslarini cheklash vositasiga aylanmasligi kerak. Aksincha, huquqiy tartib raqamli jamoatchilik nazoratini cheklash yoki susaytirish uchun emas, balki uni adolatli, ochiq, xavfsiz, mas'uliyatli va ishonchli tizim sifatida rivojlantirishga xizmat qilishi zarur.

Raqamli faollik jarayonida axloqiy mas'uliyat masalasi alohida ahamiyatga ega, chunki fuqaro biror ijtimoiy muammoni yoritishda faqat tezkorlikka emas, balki inson sha'ni, qadr-qimmatini va shaxsiy hayot daxlsizligiga ham qat'iy rioya qilishi zarur. Zero A. Qambarov tabiri bilan aytganda "ilmiy va axloqiy qadriyatlar o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, bir-birisiz rivojlana olmaydi. Fan kishilardan axloqiy poklikni, mehnatsevarlik, fidoiylilik, halollikni talaba etadi. Binobarin ilmiylik va odamiylik bir-birini taqazo etadigan tushunchalardir" [3]. Raqamli innovatsiyalar ham fan natijasi sifatida bundan mustasno emas. Jamoatchilik nazoratini amalga oshirish jarayonida boshqa shaxsning surati, shaxsiy ma'lumotlari, bolalar tasviri, tibbiy holati, oilaviy siri yoki shaxsiy hayotiga oid axborotlarni uning rozilgisiz tarqatish axloqiy jihatdan ham, huquqiy jihatdan ham nomaqbul hisoblanadi. Ayniqsa, jurnalistlar, blogerlar va faol fuqarolar jamoatchilik e'tiborini jalb qilish yoki shov-shuv ko'tarish maqsadida inson qadrini, obro'sini va ruhiy holatini qurbon qilmasligi lozim. Nodavlat notijorat tashkilotlari esa jamoatchilik ishonchiga sazovor bo'lish uchun ma'lumot yig'ish, tahlil qilish va tarqatishda ochiqlik, xolislik, asoslanganlik, rozilik olish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va ehtimoliy zararni kamaytirish tamoyillariga amal qilishi kerak. Raqamli muhitning o'ziga xos xususiyati shundaki, internetga bir marta joylangan ma'lumotni keyinchalik to'liq o'chirish yoki nazorat qilish deyarli imkonsiz, shu sababli har bir axborotni e'lon qilishdan oldin uning oqibati, boshqa insonlar huquqlariga ta'siri va jamiyatda keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ijtimoiy xavflar chuqur o'ylab ko'rilishi zarur [5]. Demak, jamoatchilik nazoratida tezkorlik qanchalik muhim bo'lsa, axloqiy mas'uliyat, huquqiy madaniyat va insonparvarlik ham shunchalik

muhimdir. Haqiqiy raqamli fuqarolik madaniyati faqat o'z huquqini talab qilish bilan cheklanmaydi, balki boshqalarning huquqi, shaxsiy hayoti, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishni ham o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli o'zgarishlar jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda keng imkoniyatlar bilan birga ayrim jiddiy xavf-xatarlarni ham yuzaga keltiradi. Bir tomondan, raqamli texnologiyalar fuqarolarga axborotni tez olish, ochiq ma'lumotlarni tahlil qilish, davlat idoralariga elektron murojaatlar yuborish, onlayn muhokamalarda ishtirok etish, byudjet mablag'lari sarfini kuzatish, davlat xizmatlari sifatiga baho berish hamda sun'iy intellekt yordamida muammo va xavflarni oldindan aniqlash imkonini beradi. Bu ayniqsa yoshlar, chekka hududlarda yashovchi aholi va faol fuqarolarning jamoatchilik nazoratidagi ishtirokini kengaytirishga xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan, shaxsiy ma'lumotlarning oshkor bo'lishi, noto'g'ri axborot tarqalishi, raqamli tengsizlik, kiberhujumlar, onlayn ta'qib, sun'iy intellekt qarorlarida adolatsiz yondashuvlar va fuqarolar ishtiroking faqat rasmiy ko'rinishda qolib ketishi kabi xavflar ham mavjud. Shu sababli raqamli jamoatchilik nazorati samarali bo'lishi uchun faqat texnologiyalarni joriy etish yetarli emas. Bu jarayonda mustahkam huquqiy kafolatlar, axloqiy mas'uliyat, raqamli savodxonlik, mustaqil ommaviy axborot vositalari, faol fuqarolik jamiyati, xavfsiz axborot infratuzilmasi va davlat organlarining ochiq hisobdorligi uyg'un holda ta'minlanishi zarur. Ana shunda raqamli o'zgarishlar jamoatchilik nazoratini zaiflashtirmaydi, balki uni yanada samarali, dalillarga asoslangan, barcha uchun ochiq va demokratik mexanizmga aylantiradi.

### **Adabiyotlar:**

1. Алляров О.Э. Ўзбекистон баркарор тараққийтини таъминлашда интернет технологияларидан самарали фойдаланиш механизмлари. Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. – Б. 13.

2. Иминова Н. Ўзбекистонда рақамлаштириш жараёнларининг ривожланиши. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” Ilmiy elektron jurnali, 2020. – № 2. – В. 1

3. Қамбаров А. Жамият маънавий янгилашиш жараёнида илмий кадриятларнинг роли. Фалсафа фанлари номзоди диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2006. – Б. 15.

4. Sattarov D. Y., Вахтиёрова N. O. Yoshlar huquqiy ongini oshirishda ta'lim muassasalarining roli. International Conference on Global Studies, 2025. – №. 4. – С. 88.

5. Жалилов А., Муҳаммадиев У., Жўраев Қ. ва бошқ. Фуқаролик жамияти асослари. – Т.: 2015. – Б. 95.